

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 20 October 2025

Accepted: 15 November 2025

Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INTEGRATION BETWEEN THE GEOLOGY AND LIGHT INDUSTRY SECTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Doniyorova Shakhnoza Doniyorovna

Department of Economics and Management

Acting Associate Professor, PhD in Economics

University of Geological Sciences

E-mail: shaxnozadoniyorova@gmail.com

www.orcid.org/0009-0008-7620-3900

Abstract. The article analyzes the current state of integration processes between the geology and light industry sectors in the economy of Uzbekistan. It examines existing opportunities, identifies existing problems, and defines prospective directions for further development.

Keywords: intersectoral integration, integration, innovative products, export potential, mineral resources, sericulture, and textile industry.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna

Iqtisodiyot va menejment kafedrası

v.b dotsent i.f.f.d (PhD)

Geologiya Fanlari Universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsion jarayonlarning hozirgi holati, mavjud imkoniyatlar, muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarmoqlararo integratsiya, integratsiya, innovatsion mahsulotlar, eksport salohiyati, mineral resurslar, pilla va to'qimachilik sanoati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N20>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiyani chuqurlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Geologiya tarmog'i mamlakatning boy mineral-xomashyo bazasini shakllantirishda, yengil sanoat esa ushbu resurslardan amaliy foydalanish, eksportbop tayyor mahsulotlar yaratish va bandlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ikki tarmoq o'rtasidagi integratsion jarayonlar nafaqat ichki ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, mavjud integratsion aloqalarning rivojlanishida bir qator muammolar ham mavjud: geologik resurslarning yetarlicha qayta ishlanmasligi, texnologik bog'liqlikning sustligi, innovatsion faoliyatning past darajasi va investitsion hamkorlikning yetarli emasligi shular jumlasidandir. Shu bois, geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, ularni yagona innovatsion tizim doirasida birlashtirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyaning hozirgi holati, mavjud imkoniyatlar va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi hamda bu sohada samarali integratsion mexanizmlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarmoqlararo integratsiya masalasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi kooperatsiya, klasterlashuv va innovatsion integratsiya jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, Porter M. tomonidan ishlab chiqilgan "klaster nazariyasi"da tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi asosiy mexanizm sifatida izohlangan. Shuningdek, D. Bell, P. Drucker, J. Schumpeter kabi olimlarning innovatsion iqtisodiyot va ishlab chiqarish tizimlari haqidagi konsepsiyalari integratsion jarayonlarning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham tarmoqlararo integratsiya masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish, eksport salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan N. Saidahmedov, S. Jo'rayev, Z. To'xtasinov va boshqa olimlarning ishlarida muhim ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsion aloqalar, ularning o'zaro iqtisodiy ta'siri hamda istiqboldagi rivojlanish mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada chuqurlashtirilmagan.

Avvalo, geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini tahlil qilishda taqqoslash, strukturaviy-tahliliy, statistik, iqtisodiy-matematik modellash va grafik usullar qo'llanildi. Bundan tashqari, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashda SWOT-tahlil va klaster tahlili elementlari asosida integratsiyaning kuchli ba zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari aniqlandi.

Metodologik jihatdan tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, hukumat dasturlari, Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Shu bilan birga, Jahon banki, BMT, UNIDO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyaning hozirgi holati, iqtisodiy ahamiyati va istiqbollari aniqlanib, amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida tarmoqlararo integratsiyani kengaytirish va innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim o'rin tutadi. Xususan, geologiya sohasi bilan yengil sanoat o'rtasidagi o'zaro aloqalar mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy xomashyoga asoslangan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda yurtimizda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, geologiya va yengil sanoat integratsiyasini chuqurlashtirish iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston geologik tuzilishi jihatidan Markaziy Osiyoda eng boy hududlardan biri hisoblanadi. Respublika hududida 1000 dan ortiq foydali qazilma konlari aniqlangan. [1] Ulardan 60 dan ortig'i strategik ahamiyatga ega. Quyidagi resurslar yengil sanoat uchun ayniqsa muhimdir:


- Pilla va to'qimachilik sanoatida ishlatiladigan kaolin, talk, ohaktosh, bentonit kabi mineral resurslar;
- Bo'yoqlar, polimerlar va sun'iy tola ishlab chiqarishda ishlatiladigan barit, grafit, titan, temir oksidlari;
- Charm-poyabzal sanoati uchun zarur bo'lgan tuz, xromit, alyunit va boshqa moddalarning mavjudligi;

Bularning barchasi yengil sanoat tarmoqlarining mahalliy resurslarga asoslangan holda rivojlanishiga zamin yaratadi.

2025-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 316,8 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,5 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 29,7 trln so'm (7,9 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 26,4 trln so'm (7,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 2,1 trln so'm (0,6 %)ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va fizik hajm indeksi 2025-yilning yanvar-may oylarida [1]

1-rasm



Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta B, C, D, E seksiyalar:

B — tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C — ishlab chiqarish sanoati

D — elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E — suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan

Yengil sanoat mamlakatimiz sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va gilamchilik yo'nalishlarini qamrab oladi. So'nggi yillarda yengil sanoat eksporti hajmi ortib bormoqda. Biroq bu sohaning rivojlanishi ko'p jihatdan import qilinadigan xomashyoga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunday xomashyo va materiallarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Bo'yoqlar va kimyoviy vositalar ko'pchilik hollarda chet davlatlardan olib kelinadi. Ya'ni bo'yoq mahsulotlarini va kimyoviy mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishimiz kerak;

- Sun'iy tolalar uchun zarur bo'lgan kimyoviy komponentlar ham asosan import qilinadi. Sun'iy tolalar importini ham qisqartirib o'zimizda ishlab chiqarish orqali eksportni yo'lga qo'yishimiz kerak;
- Mahalliy resurslardan yetarli darajada foydalanilmayapti, chunki ularning mavjudligi va sifati haqida ma'lumotlar yetarli emas. Mahalliy resurslarni sifatini oshirish ilg'or texnologiyalardan foydalanish;

Ushbu faoliyatlar shuni ko'rsatadiki, geologiya tarmog'ining yengil sanoat bilan integratsiyasi bir tomonlama jarayon bo'lib qolmasdan, o'zaro resurs almashinuvi, texnologik qo'llanma va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlaydigan kompleks tizimga aylanishi mumkin. Xususan, yengil sanoat tarmoqlari uchun zarur bo'lgan xomashyolarni (kaolin, talk, ohaktosh, alyunit, barit, grafit, bo'yoqlar uchun tabiiy pigmentlar va boshqalar) geologik izlanishlar orqali aniqlash, ularni qayta ishlashga moslashtirish va mahalliy sanoat korxonalarga yetkazib berish – integratsiyaning eng muhim amaliy yo'nalishlaridan biridir.

Bunda integratsiyaning faqat xomashyo yetkazib berish bilan cheklanmasligi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, bu hamkorlik asosida ishlab chiqarishning yuqori bosqichlariga o'tish,

mahalliy resurslardan foydalangan holda yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish – strategik maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, geologik materiallar asosida ishlab chiqilgan laboratoriya jihozlari, dala sharoitida foydalaniladigan geologik kiyim-kechaklar (maxsus mato, himoya vositalari), asboblarning qutilari, saqlash sumkalari kabi mahsulotlarni tayyorlashda yengil sanoat texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkin. Bunday ko'p bosqichli hamkorlik quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

Mahalliy lashtirish darajasi oshadi, ya'ni xomashyo ham, ishlab chiqarish jarayoni ham mamlakat ichida amalga oshiriladi;


Qo'shimcha qiymat yaratiladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi;

Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqiladi, chunki geologiya va yengil sanoat texnologiyalarining birikishi yangi dizayn, yangi modifikatsiyalar va maxsus texnik kiyimlar ishlab chiqarishga imkon yaratadi;

Ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlik kuchayadi, ayniqsa eksport yo'nalishida geologik asboblarning va maxsus to'qimachilik mahsulotlariga talab mavjud.

Shunday qilib, geologiya va yengil sanoat o'rtasidagi integratsiya, bir tomondan, resurs bazasidan oqilona foydalanishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni ichki va tashqi bozorga chiqarish orqali iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shadi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 239,7 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.



2-rasm. Sanoat ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari [2]

Geologiya va yengil sanoat integratsiyasining asosiy yo'nalishlari:[2]

a) Xomashyo bazasini diversifikatsiya qilish

Geologik izlanishlar orqali yengil sanoat uchun muhim bo'lgan mineral resurslar aniqlanib, ularning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi ta'minlanadi. Masalan:

- Kaolin va talk asosida kosmetika va yuvinish vositalari ishlab chiqarish;
- Bentonitdan to'qimachilikda filtrlovchi materiallar tayyorlash;
- Kaliy va natriy tuzlari asosida bo'yoq moddalar ishlab chiqarish.

b) Mahalliy resurslar asosida klasterlar tashkil etish

Yengil sanoat korxonalarini mineral resurslarga yaqin joylashtirish orqali transport xarajatlari kamaytiriladi va logistika soddalashtiriladi. Masalan:

- Navoiy viloyatida mavjud kaolin konlari asosida keramik tola va bo'yoq ishlab chiqarish klasteri;
- Jizzax viloyatida talk konlari asosida kosmetika va yengil sanoat uchun maxsus mahsulotlar ishlab chiqarish.

c) Ilmiy-tadqiqot va innovatsion hamkorlik

Oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida geologiya va yengil sanoat uchun muhim bo'lgan materiallar xossalari o'rganish va yangi texnologiyalar ishlab chiqish zarur.

Rivojlanish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar

"Geologiyani 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi mamlakatning geologiya sohasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va geologik ma'lumotlar bazasini yangilashga qaratilgan.[4] Bu strategiya mineral-xomashyo bazasini mustahkamlash, yangi geologik tadqiqotlarni o'tkazish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va soha uchun malakali kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Mineral-xomashyo bazasini mustahkamlash:

Yangi konlarni aniqlash va mavjud konlardan samarali foydalanishni oshirish.

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan foydali qazilmalar (oltin, mis, uran, gaz) qidiruvi va qazib olishni ko'paytirish.

Geologik tadqiqotlarni kengaytirish:

Zamonaviy geofizik va geokimyoviy usullardan foydalangan holda chuqur geologik qidiruvlarni o'tkazish.

Geologik xaritalashni modernizatsiya qilish va yangi geologik ma'lumotlarni to'plash.

Investitsiyalarni jalb etish:

Geologiya sohasidagi loyihalar uchun investitsiyalarni rag'batlantirish.

Xorijiy va mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish:

Geologik ma'lumotlarni boshqarish uchun yagona milliy bazani yaratish.

Raqamli geologik platformalarni ishga tushirish va ma'lumotlarni ochiq va shaffof qilish.

Kadrlar tayyorlash:

Soha uchun zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuqori malakali geologlarni tayyorlash.

Xalqaro standartlarga mos keladigan o'quv dasturlarini joriy etish.

"Yengil sanoatni 2027-yilgacha rivojlantirish dasturi" – ushbu dastur doirasida yengil sanoat tarmoqlarining mahalliy resurslarga tayangan holda rivojlanishini ta'minlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, xomashyo bazasini diversifikatsiya qilish maqsad qilingan.[6] Lokal mineral resurslarni to'qimachilik, charm-poyabzal, trikotaj va gilamchilik tarmoqlarida qo'llash bu borada ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Investitsion muhitni yaxshilash masalasi ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Xususan, foydali qazilmalarni qazib olish, ularni dastlabki qayta ishlash va sanoatga yo'naltirish sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda soliq imtiyozlari, yer ajratishdagi yengilliklar, infratuzilma bilan ta'minlash kabi qo'llab-quvvatlov mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Integratsiyaning iqtisodiy va ekologik afzalliklari

Iqtisodiy afzalliklar:

- Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi;
- Yangi sanoat quvvatlari va ish o'rinlari yaratiladi;
- Eksport salohiyati oshadi;
- Mahalliy qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Ekologik foyda:

- Mahalliy xomashyo manbalaridan foydalanish natijasida transport va tashishdan kelib chiqadigan zarar kamayadi;
- Yashil texnologiyalar asosida qayta ishlash imkoniyati yuzaga keladi;
- Konlarni kompleks o'rganish orqali chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.[7]

O'zbekistonda geologiya va yengil sanoat o'rtasidagi integratsiya istiqbollari katta. Bu yo'nalishlar resurslardan oqilona foydalanish, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi.

Har bir viloyat kesimida mineral resurslar va yengil sanoat korxonalari o'rtasida logistika xaritasini yaratish. Geologik izlanishlar va yengil sanoat ishlab chiqarishlarini birligida rejalashtirish. Ilmiy markazlar ishtirokida xomashyoni sanoatga moslashtirish loyihalarini amalga oshirish. Davlat-xususiy sheriklik asosida integratsion klasterlar yaratish.

Xulosa. O'zbekiston iqtisodiyotida geologiya va yengil sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Geologik izlanishlar natijasida aniqlanayotgan tabiiy resurslarni qayta ishlash, ularni yengil sanoat tarmoqlarida foydalanish hamda mahalliy xomashyo asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Tarmoqlararo integratsiyaning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, eksport hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion aloqalarni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan tejamkor foydalanish ham ushbu integratsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

Kelgusida geologiya va yengil sanoat tarmoqlarining integratsiyasini yanada chuqurlashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga sarmoya kiritish, xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu esa O'zbekistonning raqobatbardosh, innovatsion va barqaror iqtisodiyotini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" konsepsiyasi. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi
3. O'zbekiston Respublikasi "Sanoat siyosatini rivojlantirish to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar vazirligi ma'lumotlari. — www.geology.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti. — www.miit.uz

6. Nazarov B., Abduvaliyeva M. *Sanoat iqtisodiyoti*. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
7. Karimov A. *Tarmoqlararo integratsiya va uning iqtisodiy samaradorligi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).